

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|---|-------|
| <i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism)..... | 9-14 |
| <i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI | 15-21 |
| <i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР | 22-28 |
| <i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOVATI | 29-34 |
| <i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ | 35-39 |
| <i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI | 40-45 |
| <i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI | 46-52 |
| <i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР | 53-58 |
| <i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ | 59-65 |
| <i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR | 66-71 |

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

| | |
|--|---------|
| <i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ | 72-78 |
| <i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI | 79-90 |
| <i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI | 91-99 |
| <i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ | 100-109 |

| | |
|---|---------|
| <i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 110-118 |
| <i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ | 119-124 |
| <i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ | 125-130 |
| <i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI | 131-136 |
| <i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI | 137-147 |
| <i>Rahimbayev Akmal Azatboevich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ | 148-157 |
| <i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI | 158-170 |
| 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| <i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА | 171-175 |
| <i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ | 176-181 |
| <i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ | 182-186 |
| <i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI | 187-191 |
| <i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ | 192-197 |
| <i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK | 198-204 |
| <i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida)..... | 205-214 |

| | |
|---|---------|
| <i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI | 215-219 |
|---|---------|

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

| | |
|---|---------|
| <i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS | 220-227 |
| <i>Равшанова Гулрухбегим Қахрамон қизи</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ | 228-232 |
| <i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI | 233-237 |
| <i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI | 238-243 |
| <i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI | 244-252 |
| <i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI | 253-258 |
| <i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR | 259-265 |
| <i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION | 266-271 |
| <i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI | 272-277 |

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

| | |
|---|---------|
| <i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI | 278-286 |
| <i>Мурзаев Шухрат Шавкатович</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ | 287-293 |
| <i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL | 294-301 |
| <i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES | 302-309 |
| <i>Ходжаева Ширинхон Олимхон кизи</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ | 310-315 |
| <i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJYIY TAJRIBA | 316-322 |
| <i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ | 323-329 |

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Хаййева Ирода Адамбаевна

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIIY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИYA ТАРАҚҚИYOTИДА КОММУНИКАТИV КОМПЕТЕНСИYA
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Mirzayev Avazbek,
Andijon davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUIJATLARIDA
YORITILISHI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, arxiv hujjatlari asosida, Farg‘ona vodiysida mustamlaka davrida Andijon tajriba paxta dalasi tarixining ayrim masalalari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan va yoritilgan.

Kalit so‘zlar: plantatsiya; agronom; mineral o‘g‘it; superfosfat; pud; funt; ma‘lumot; dalolatnoma.

Mirzayev Avazbek,
Andijan State University
Senior Lecturer at the Department of General History
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

**REFLECTION OF THE HISTORY OF ANDIJAN EXPERIENCE COTTON FIELD IN
ARCHIVED DOCUMENTS**

Abstract: In this article, using the example of archival documents, from a source study point of view, certain issues of the history of the Andijan experimental cotton field in the Fergana Valley during the colonial period are analyzed and highlighted.

Key words: plantation; agronomist; mineral fertilizers; superphosphate; pood; lb; mixing; act.

Мирзаев Авазбек,
Андижанский государственный университет
Старший преподаватель кафедры «Всеобщей истории»
доктор философии по историческим наукам (PhD)

**ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ АНДИЖАНСКОГО ОПЫТНОГО ХЛОПКОВОГО ПОЛЯ В
АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ**

Аннотация: В данной статье, на примере архивных документов, с источниковедческой точки зрения, проанализированы и освещены отдельные вопросы истории Андижанского опытного хлопкового поля в Ферганской долине в колониальный период.

Ключевые слова: плантация; агроном; минеральное удобрения; суперфосфат; pud; фунт; сведение; акт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N02>

Dolzarbliigi. Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgan O‘rta Osiyo, keyinroq ushbu hududda tashkil etilgan respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ham paxta sanoatiga bog‘liq bo‘lib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan

so'ng mamlakat iqtisodiyoti va import salohiyatini oshirishda paxta yakkahokimligiga chek qo'yish bilan birga sohani fan va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari asosida rivojlantirish siyosatini qo'llamoqda. Ayni paytda, O'zbekistonda paxtachilik tarixi, sohaning yutuq va kamchiliklarini ilmiy asoslarda o'rganish ham dolzarb vazifalardan sanaladi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tarixiy-qiyosiy hamda umumiy tahlillar asosida xulosa berish, xolislik, ilmiylik, tarixiy yondashuv, tizimlashtirish tadqiqotning metodologik asosini tashkil qilib, muammoni o'rganilganlik darajasini tahlil qilish, mavzu bo'yicha birlamchi arxiv hujjatlari, O'zbekiston tarixida paxtachilikning mustamlakachilik va sovet davridagi muammolari birmuncha yaxshi o'rganilgan mavzulardan biri. Paxtachilik Rossiya imperiyasi sanoatining muhim sohasini tashkil etgani sabab, ushbu yo'nalishdagi ilk ishlar XIX asrda Turkiston o'lkasidagi mahalliy ma'murlar tomonidan amalga oshirilgan. Dastlabki nashrlar maqola shaklida, keyinroq maxsus kitoblar va monografiyalar ko'rinishda e'lon qilindi.

Tadqiqot natijalari. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so'ng, "O'rta Osiyo asta-sekin rossiyaning ichki xo'jalik aylanmasiga tortilib, bu yerda sanoat, yog'-moyni qayta ishlash va boshqa korxonalar vujudga kela boshladi. XX-asrning 80-yillarida Moskvalik to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari Shimoliy Amerikadan uzuntolali paxtaning yangi navlarini olib kela boshladilar, bu esa mahalliy ishlab chiqarishni an'anaviy tarmog'i hisoblangan – O'rta Osiyo paxtasining hosildorligi va sifatini keskin oshirdi»[1;808-b.].

XIX-asrning ikkinchi yarmida chor xukumati paxtachilikni rivojlantirishga, o'z to'qimachilik sanoatini paxta xomashyosi bilan ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Shu maqsadda mahalliy g'o'za navining o'rniga, tolasi uzun va pishiq, hosildorligi yuqori bo'lgan amerika paxta navi joriy qilina boshlandi. 1899 yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Samarqand oblastida Mirzacho'l tajriba paxta dalasi hamda Farg'ona oblastida Andijon tajriba paxta dalasi paxta navini yaxshilash uchun tashkil qilindi[2;108-b.].

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasining 7-fondi materiallari orasida mustamlaka davrida Turkiston o'lkasida, xususan Farg'ona vodiysida paxtachilikning rivojlanishida tajriba paxta dalalarining tutgan o'rni bayon etilgan ko'plab arxiv hujjatlari uchraydi.

Mazkur muassasalarning faoliyatiga doir yozuv mashinkasida yozilgan va qo'lyozma hujjatlar orasida bayonnomalar, o'lkadagi yuqori va markaziy boshqaruv idoralari bilan olib borilgan turli yozishmalar mavjud bo'lib, ularda paxta tajriba dalalari hamda plantatsiyalarining nomlari, qaerda joylashgani haqidagi ma'lumotlar, paxtani iqlimlashtirish va mahalliy sharoitga mos navlarini yaratish yuzasidan olib borilgan chora-tadbirlar aks etgan.

O'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklashda arxiv hujjatlarining ahamiyati kattadir. Ilgari o'rganilmagan, istibdod mafkurasiga mos tushmaganligi uchun chetlab o'tilgan arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish chorizm va sho'ro mustamlakachilari siyosatining asl mohiyatini ochib beradi va xalqimizni haqiqiy tarixini yoritishga yordam beradi[3;7-8-b.].

Farg'ona oblastidagi Andijon va O'sh uездlari bo'yicha Davlat mulklari mudirining 1902-yil 12-dekabrda chiqish jurnalida № 465-raqami bilan qayd etilib, Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga Andijon shahridan yuborgan aloqa xatida, mazkur uездlardagi paxtachilikning holati yoritib berilgan. Yozishmada barcha firmalar, Andijon tajriba paxta dalasida eng yaxshi natijalar bergan chigitlarni, aholi o'rtasida tekinga tarqatishi va yetishtirilgan paxtani tajriba paxta dalasi binosidagi jin mashinasida tozalash majburiyatini qo'yishi, katta xarajatlarsiz chigitni qaytadan qo'lga kiritib, mahalliy sharoitlarga

ko'ra yangi, bir xil navdagi chigitlarni Andijon uezdi bo'yicha paxta yetishtiradigan aholiga qaytadan tarqatish imkoniyati yuzaga kelgani bayon etilgan[4;137-b.].

Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasining qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassisi, agronom Ponyatovskiy hamda Farg'ona oblast boshqarmasining qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassisi S.A.Melik-Sarkisyan tomonidan tuzilgan yillik hisobotlarda ham tajriba paxta dalalari va plantatsiyalarining faoliyatiga doir ma'lumotlar uchraydi. Ponyatovskiyning 1903- yil 5-iyunda № 9-chiqish raqami bilan qayd etilib, boshqarma boshlig'i nomiga taqdim etgan hisobotida, muassasa ko'zdan kechirilganda aniqlangan holat bayon etilib, Andijon tajriba paxta dalasini Andijon shahri yaqinidagi Avg'on-bog' degan yerda joylashgani, bog'dagi ko'pgina katta daraxtlar kesib olib tashlanmagani, bo'yiga va eniga o'tqazilgan ariqlar ko'milishi kerakligi, bog'dagi qiyalik, nishob yerlar tekislanishi va almashlab ekish uchun moslanishi zarur ekani, bu ishlarni amalga oshirmasdan turib tajriba ishlarini o'tkazishni imkoni yo'qligi, shu paytga qadar olib borilgan ishlar esa tajriba xarakteriga ega bo'lmasdan, faqat namoyish qilishdan iborat bo'lgani haqida tanqidiy baho berilib, tajriba dalasining vazifasi paxtachilikda g'o'za navlarini yaxshilashdan iborat bo'lsa-da, biroq hatto mineral o'g'itlarni ham yo'qligi aniqlangani ta'kidlab o'tilgan.

Andijon tajriba paxta dalasining mudiri, agronom A.Muxin tomonidan 1909-yil 20-iyunda №75-chiqish raqami bilan qayd etilib, Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga jo'natilgan hisobotda 1907 va 1908-yillarda Andijon tajriba paxta dalasida amalga oshirilgan ishlar, jumladan ob-havoni meteorologik kuzatishlarni yillik jadvali ham aks etgan. Paxta ekilgan yerlarda mineral o'g'itlarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda, kunjaradan mineral o'g'it sifatida foydalanilgani, ayniqsa kunjara bilan superfosfat aralashmasidan tayyorlangan o'g'it solingan yerlarda paxtadan yuqori hosil olingani bayon etilgan. Bundan tashqari, paxta dalalarini necha marta sug'orish, chopiq qilish, g'o'zalarni oralatib ekish hamda chekanka qilish ya'ni chilpib chiqish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarni natijalari ham yoritilgan. Hisobotda, 210 kvadrat metr maydonga bo'lib ekilgan 12 xil paxta navlari yoki 100 kvadrat metr maydonga bo'lib ekilgan 8 xil paxta navlarining har biridan bir desyatina maydondan necha pud va funt hosil olingani to'g'risidagi taqqoslash jadvali, shuningdek, suli, makkajo'xori, lavlagi, kartoshka, mosh yetishtirilgan maydonlar bilan ikki dalali almashlab ekilgandagi umumiy paxta hosildorligi bo'yicha ham solishtirma jadval qayd etilgan.

Andijon tajriba paxta dalasi mudiri A.Muxin tomonidan qo'lda yozilib, 1909-yil 11-noyabrda №151 raqami bilan qayd etilib, Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga jo'natilgan, Andijon tajriba paxta dalasi nomini paxtachilik stansiyasi deb o'zgartirish to'g'risida ishlab chiqilgan rejada, mazkur muassasada bu paytga kelib 20 ga yaqin g'o'za navlari mavjudligi, ularning ayrimlari tezpisharligi, ba'zilar hosildorligi, boshqalari esa tolasining sifatligi bilan ajralib turishi, ba'zi bir sifatli paxta navlarini chigitlarini paxta yetishtiruvchi aholi o'rtasida ko'p miqdorda tarqatish maqsadga muvofiq ekanligi bayon etilgan. Andijon uezdi va Andijon shahri hududida turli muddatga ijaraga beriladigan davlatga qarashli: Ashurbek O'rdasida 11/2 desyatina, Nasriddinbek bog'ida 14 desyatina, Yorboshi bog'ida 10 desyatina, 1-chi Bo'taqora uchastkasida 45 desyatina, 2-chi Bo'taqora uchastkasida 29 desyatina va Tuyachida 48 desyatina paxta ekish uchun qulay yer maydonlari borligi bayon etilgan.

Dehqonchilik departamenti tomonidan ijaraga beriladigan davlatga qarashli paxtachilik bo'yicha Andijon tajriba dalasi 1900 yildan boshlab faoliyat ko'rsatgan va 2 ta yer uchastkalaridan iborat bo'lgan. Ulardan biri "Avg'onbog'" deb nomlanib, ilgari Xudoyorxonga tegishli bo'lgan, va uncha katta bo'lmagan "Sariquy" uchastkasi esa, Andijon uyezdining Xakan volosti markazidagi paxta ekiladigan hududda, Andijon shahridan 31/2 verst masofada, shahar bilan "Katta Dovon" oralig'ida, Andijon — Asaka katta tosh yo'li hamda temir yo'l polotno (ko'tarma) sini yonida joylashgan. Dalaning umumiy maydoni 211/2 desyatinani tashkil etib, yangidan o'tqazilgan ariqlar o'z suvini Andijonsoydan oqib keladigan Guliston ariqdan olgan[5;86-93-b.].

Andijon tajriba paxta dalasining asosiy sinov obyekti g'o'za o'simligini ikki dalali almashlab ekish hisoblangan. 1905-yildan boshlab tanlash va chatishtirish yo'li bilan g'o'zaning yangi navlarini yaratish boshlandi; 1906-yildan kunjara aralashmali mineral o'g'itlar bilan tajribalar olib borildi; 1908-yildan g'o'zani qator oralatib ekish bo'yicha tajribalar o'tkazildi; 1909-yildan Samarqand oblastidagi Mirzacho'l paxta tajriba dalasidan namuna olib, yangi usuldagi ikki dalali almashlab ekish yo'lga qo'yildi[6;105-106-b.].

Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari Boshqarmasidan 1912-yil 16-fevralda №3092-chiqish raqami bilan Andijon tajriba paxta dalasi mudiriga jo'natilgan xatda, Andijondagi "Aka-uka Kraftlar" ning paxta tozalash zavodida saqlanayotgan, Kavkazga ekish uchun jo'natilishi lozim bo'lgan yetti ming pud paxta chigitlarini sifatini, ekish uchun yaroqliligini tekshirib, qisqa fursat mobaynida Boshqarmaga ma'lum qilishlik so'ralgan. 1912-yil 2-mart kuni A.Muxinning nomidan telegraf orqali jo'natilgan №4292-raqamli telegramma, Boshqarmada 1912-yil 3-mart kuni №3685-raqami bilan qayd etilib, telegrammada chigitlar ko'zdan kechirilgani, yaxshi holatda saqlangani, uchinchi mart kuni temir yo'l orqali jo'natilishi xabar qilingan. Andijon tajriba paxta dalasidan jo'natiladigan chiqish hujjatining yuqori chap burchagida qo'yilgan shtamp, ya'ni rasmiy qog'ozlarga bosiladigan to'rtburchak muhrda ilgari "Andijon tajriba dalasi" degan yozuv, 1912-yildan boshlab "Paxtachilik bo'yicha Andijon tajriba dalasi" degan yozuv bilan almashtirildi. Andijon tajriba paxta dalasi mudiri A. Muxin telegrammadan tashqari, Boshqarmaga 1912-yil 2-mart kuni yuborgan №3092-raqamli xatiga, Kavkazga jo'natiladigan paxta chigitlarini ko'zdan kechirilgani haqida tuzilgan akt, ya'ni dalolatnomani ham ilova qilgan. Mazkur dalolatnoma Andijon tajriba paxta dalasi mudiri A.Muxin, Andijon uyezdining paxtachilik bo'yicha instruktorlari Nikolaev va Alesho tomonidan, 1912-yil 2-mart kuni, Asaka volostida joylashgan, Qo'qondagi "Aka-uka Kraftlar" kontorasiining firmasiga tegishli, paxta tozalash zavodida tuzilgan va imzolangan bo'lib, temir yo'l orqali Asaka stansiyasidan Kavkazga jo'natilishi lozim bo'lgan paxta chigitlari sinchiklab ko'zdan kechirilib, tekshirilganda chigitlar birinchi terim paxtadan olingani, to'liq holdaligi, usti yopiq omborxonada saqlanayotgani qayd etilgan. Boshqa hujjatlarda, 1912-yil 8-mart kuni Asaka stansiyasidan Kavkazga jo'natilgan 5 vagon paxta chigitlarini ikkinchi partiyasini ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan mutaxassislar ko'zdan kechirishgani va ularga xizmati evaziga tegishli haq to'langani bayon etilgan[7;3,17,24,25,27-b.].

Rossiya imperiyasi Dehqonchilik va Davlat mulklari Bosh boshqarmasining chiqish hujjatlari jurnalida 1913-yil 25-iyunda №38700-raqami bilan qayd qilinib jo'natilgan, Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasida 1913-yil 8-iyulda №12392-raqami bilan kirish jurnalida qayd qilingan xatda ko'rsatilishicha, Amerikadan, Villet firmasidan olib keltirilgan 31 ta qopdagi umumiy og'irligi 70 pud 24 funt bo'lgan paxta chigiti Toshkentga

yuborilgani qayd etilgan. Turkiston o'lkasi Dehqonchilik boshqarmasidan 1913-yil 9-iyulda Toshkentdagi davlat qishloq xo'jalik omborlari boshqaruvchisi A.I.Dinin nomiga yuborilgan №1244-raqamli xatda, yuqorida qayd etilgan 31 qop paxta chigitini omborxonaning yopiq binosida alohida farmoyish berilishiga qadar saqlab turish ko'rsatilgan. Turkiston o'lkasi Dehqonchilik boshqarmasidan 1913-yil 18-sentyabrda qishloq xo'jaligi bo'yicha katta mutaxassis N.M.Studenovga hamda Turkiston Entomologiya stansiyasi mudiri V.I.Plotnikovga jo'natilgan №16893 va №16894-sonli xatlarda, Amerikadagi Villet firmasidan keltirilib, Toshkentdagi davlat qishloq xo'jalik omborida saqlanayotgan paxta chigitlarini dezinfeksiya qilish, ya'ni zararli mikroblardan tozalash, zararlantirish ishini birgalikda amalga oshirish to'g'risida topshiriq berilgan. Dezinfeksiyadan so'ng esa, Nikolay Mixaylovich Studenov ushbu chigitlarni qaysi joylarga tarqatish kerakligi haqida loyiha tuzishi to'g'risida, xat orqali yozma ko'rsatma berilgan[8;1-2,4-6-b.].

Andijon tajriba paxta dalasining nomi 1914-yildan boshlab Andijon qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi deb o'zgartirildi. Stansiyaning direktori A.Muxin tomonidan Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga 1914-yil 5-aprelda jo'natilgan №181-raqamli xatga ko'ra, 1913-yilda tajriba stansiyasida paxta xomashyosini sotishdan 2555 rubl 83 kopeek hamda chigitlarni sotishdan esa 385 rubl 65 kop. daromad olingan[9;70-b.].

Andijon qishloq xo'jalik tajriba stansiyasining direktori A.Muxin tomonidan Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga 1914-yil 7-oktyabrda jo'natilgan №654-raqamli xat, Boshqarmada kirish hujjatlari jurnalida 1914-yil 23-oktyabrda №16446 raqami bilan qayd etilgan, ushbu hujjatda 1914-yilda tajriba stansiyasida 10 desyatina 2294 kvadrat sajen uchastkaga ekilgan chigitdan 880 pud paxta xomashyosi yetishtirilib, olingan paxta hosildan 293 pud tola va 587 pud chigit ajratib olingan. Chorakorlarga ijaraga berilgan 3 desyatina 200 kv. sajen uchastkada 240 pud paxta xomashyosi yetishtirilib, undan 80 pud tola va 160 pud chigit ajratib olingani, kelishilgan shartlarga ko'ra chorakor o'zining hissasi bo'lgan 120 pud paxta xomashyosi uchun ham to'lovni amalga oshirishi lozim bo'lgan[10;108-b.].

Arxiv hujjatlaridan aniqlanishicha, Andijon qishloq xo'jalik tajriba stansiyasidagi paxta dalasida ham chorakorlar mehnatidan foydalanilgan. Chorakorlik – yer ijarasi turlaridan biri bo'lib, bunda chorakor mehnat haqi evaziga, yetishtirilgan paxta xomashyosining to'rtidan bir qismini olgan[11;508-b.].

Andijon qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi direktori A. Muxin tomonidan 1915-yil 13-iyunda chiqish jurnalida №364-raqami bilan qayd etilib, Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga jo'natilgan, 1915-yil 16-17-fevralda tajriba stansiyasida bo'lib o'tgan viloyat Kengashini birinchi yig'ilishi jurnali bayonnomasiga ko'ra, yig'ilishda stansiya direktori, Kengash raisi A.Muxin, Farg'ona viloyati agronomi S.F.Grigorev, Farg'ona seleksiya stansiyasining mudiri A.E.Lyubchenko, stansiya bo'limlari mudirlari qatnashgan. Seleksiya bo'limining 1915-yil uchun ish rejasiga ko'ra, g'o'zani eng yaxshi ayrim navlaridan olingan chigitlarni ekib, ularni unib chiqishi, tezpisharligi, hosildorligi, tolasining uzunligini va pishiqligini sinab ko'rish ko'zda tutilgan. Shuningdek, hosildorligini katta maydonda ekib sinab ko'rish uchun №226-raqamli Triumf navini ko'paytirish, shuningdek, Ashmuni+King hamda King+Qora chigit gibridd, ya'ni chatishmalarini ikkinchi bo'g'inini ekish rejalashtirilgan[12;48-50-b.].

Andijon qishloq xo'jalik tajriba stansiyasida va Farg'ona seleksiya stansiyasida yetishtirilgan paxta mahsuloti xomashyo, tola hamda chigit shaklida sotilgan va olingan

daromadlar to'g'risida muntazam ravishda Turkiston o'lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga hisobotlar topshirilgan. Masalan, 1915-yil 13-iyunda №366-raqami bilan qayd etilib, Andijon tajriba stansiyasidan Dehqonchilik boshqarmasiga jo'natilgan hisobot ancha batafsil bayon etilgan. Unda qayd etilishicha, 1914-yilda stansiyada 45 pud 9 funt (narxi 101 rubl. 75 kop.) paxta xomashyosi, 442 pud 33 funt (narxi 7179 rubl 01 kop) paxta tolas va 397 pud 30 funt (narxi 351 rubl 99 kop) chigit sotilgan. Seleksiya stansiyasida esa 1914-yilda 37.800 rubllik paxta tolas va 1327 rubl 55 kopeylik chigit sotilgan[13;86-91-b.].

Andijon tajriba qishloq xo'jalik stansiyasida 1915-yil 29-dekabrda 1916-yil 2-maygacha amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobot materiallari, 39 varaqdan iborat hujjatlarda aks etgan. Dehqonchilik vazirligining Dehqonchilik Departamentini IX-bo'limi tomonidan 1915-yil 20-dekabrda №14055-raqami bilan qayd etilib, Turkiston o'lkasining Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasiga yuborilgan rasmiy xati, 1915-yil 29-dekabrda №13947-raqami bilan hujjatlarni kirish jurnalida ro'yxatga olingan. Xatda bayon etilishicha, 1916-yilda Andijon tajriba stansiyasining ta'minoti uchun 39.750 rubl ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'dan 13.800 rubli shaxsiy tarkibni ta'minoti uchun va 25.950 rubl esa xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanishi xarajatlar smetasida ko'rsatilgan. Harajatlarning buromad (rasxod) qismida tajriba stansiyasi mudiri, shuningdek, ximiya laboratoriyasi, seleksiya bo'limi, meteorologiya bo'limi, dala ishlari va bog'dorchilik bo'limlari mudirlarining 1916-yilda oladigan maoshlari ko'rsatilgan. Selesiya bo'limini ta'minoti uchun ajratiladigan mablag'da muntazam ishlaydigan ishchini yillik maoshi 420 rubl., vaqtincha 9 oy muddatga olingan ishchi 270 rubl., vaqtincha 5 oy muddatga olingan ishchi esa 150 rubl. maosh olishi belgilangan. Shuningdek, ushbu bo'limda 3,5 desyatinani o'g'itlash va seleksiya ekinlari uchun 125 rubl, bir kunga yollanadigan ishchilar uchun xarajatlarga esa 525 rubl ajratilgan. Dala ishlariga oid xarajatlarda dala nazoratchisiga 602 rubl., doimiy ishchi uchun 420 rubl., 8,5 desyatinaga ekin ekish uchun xarajatlarga 1.275 rubl ajratilgan. Meteorologik bo'limda ekin ekishga ajratilgan 2 desyatina tajriba uchastkasiga ishlov berish uchun 600 rubl., 6 oy muddatga olinadigan ishchiga 210 rubl., o'lchov asboblari sotib olishga 200 rubl., ehtiyotdan olib qo'yiladigan termometrlar uchun 30 rubl ajratilgan[13;1-5-b.].

Xulosalar. Shu o'rinda aytish mumkinki, mustamlaka davrda Turkiston o'lkasida, xususan Farg'ona vodiysida Andijon tajriba paxta dalasi va boshqa paxtachilik plantatsiyalarining paxtachilikni rivojlanishida muhim o'rin tutgani haqidagi ma'lumotlar, arxiv hujjatlarini tahlil etish orqali ilmiy muomalaga kiritildi.

Mazkur muassasaning ish hujjatlarida, mahalliy paxta navi hamda Amerika paxta navini mukammallashtirish borasida olib borilgan ilmiy tajribalar o'z aksini topgani, arxiv ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash jarayonida aniqlandi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. История России. С древнейших времен до начала XXI в. под ред. А.Н. Сахарова.- М.: АСТ: Астрель: Транзиткнига, 2006.
2. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Т.: «Шарқ», 2001.
3. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент, “Тафаккур бўстони”, 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 2468-ish.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3053-ish.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3053-ish.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3175-ish.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3269-ish.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3377-ish.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1- ro'yxat, 3377-ish.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон
12. Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1-ro'yxat, 3432-ish.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1-ro'yxat, 3378-ish.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Fond I-7, 1-ro'yxat, 3433-ish.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).